

XALQARO EKOLOGIK MUNOSABATINING ZAMONAVIYLASHTIRISH ZARURIYATI

Bakirov Feruz Sayfulla o'gli

Shahrisabz Davlat pedagogika instituti doktoranti

feruzbakirov@gmail.com

Annotatsiya Maqolada, davlat ekologik siyosatini zamonaviylashtirish orqali milliy ekologik siyosatni xalqaro ekologik munosabatlarga integratsiyalashtirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar ekologik siyosatida erishilgan yutuqlar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik globallashuv, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, ekologik tarbiya, ekologik makon, ekologik faoliyat, tabiat muhofazasi, ekologik muhit, ekologik madaniyat.

Аннотация В статье рассматривается важность интеграции Национальной экологической политики в международные экологические отношения путем модернизации государственной экологической политики. Также был проведен научный анализ достижений экологической политики развитых стран.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическая политика, экологическая безопасность, экологическое воспитание, экологическое пространство, экологическая деятельность, охрана природы, экологическая среда, экологическая культура.

XXI asrda ekologik globallashuv tendensiyasining avj olishi O'zbekistonning barqaror ekologik rivojlanishi strategiyasini belgilaydigan ekologik siyosat modelini yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda. Bunday modelga zaruriyat 15-20 yillar avvaloq yuzaga kelib ulgurgan. Shuni nazarda tutgan holda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda: "global ijtimoiy muammolar, jumladan ming yillik rivojlanish maqsadlari doirasida, "regionalizm orqali globalizm sari" formulasi bo'yicha, samarali mintaqaviy mexanizmlar yaratish yo'li bilan hal etilishi lozim" [9, 286], deb ko'rsatgan edi. Biroq muammo shundaki, mazkur model hanzga qadar tugal shakllantirilgani yo'q. Bu model mazmuniga va funksiyasiga ko'ra xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarni ekologiyalashtirish imkoniyatlarini aniqlashi; milliy va hududiy ekologik muammolarni hal qilishning institutsional tizimida jiddiy islohotlar strategiyasini belgilashi; ekologik globallashuv sharoitida mahalliy, milliy, hududiy ekologik faoliyatlarning integratsiyalashish tendensiyalarini ko'rsatib berishi lozim.

Xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda hozirgi zamon dunyo sistemasining ko'pqutbliligi omilini hisobga olish zarur. Xalqaro ekologik siyosatdagi hatto sezilmaydigan

kelishilmovchilik ham taraqqiy etgan davlatlarning «milliy egoizm»ini namoyon qiladi yoki rivojlanayotgan davlatlarning milliy manfaatlarini tan olmaslikka olib kelishi mumkin.

Ekologik globallashuv sharoitida davlatlarning milliy ekologik siyosati paradigmalari o'zgarib, yangi mazmun va ko'lam kasb etmoqda. Uning kompleks-sistemali xarakteri ekologik siyosat predmeti doirasiga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik, etnomadaniy, etikologik, informatsion va boshqa omillarning uyg'unligi, transmilliy xususiyatlarining ekologik siyosiy faoliyatga ta'siri o'sib borayotganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham dunyoning turli mintaqalarida yashovchi, lekin ekologik muammolari umumiy bo'lgan davlat rahbarlarining milliy, regional, global muammolarga umuminsoniyat manfaatlarini asosida yondashish tendensiyasi kuchayishiga olib kelmoqda. Bu hodisani, pragmatizm falsafasi nuqtai nazaridan, butun insoniyatning optimal ekologik muhitda hayot kechirishi uchun siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning operativ strategiyasi sifatida baholash mumkin. Zero, aynan shunday siyosiy pragmatizm globallashish potensialiga ega bo'lgan mintaqaviy muammolar yechimining yo'llarini, usullarini, vositalarini ko'rsatib berishi mumkin. YA'ni, mintaqaviy ekologik muammolarni zudlik bilan ratsional va konstruktiv hal qilish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, o'tgan asrning ikkinchi yarmida globalmiqyosda yuzaga kelgan ekologik vaziyat keskinlashuvining tarixiy genezisini, obyektiv shart-sharoitlarini, sabablarini va subyektiv omillarini aniqlash, jahon hamjamiyatining XXI asrdagi ekologik siyosati strategik vazifalari yo'nalishlari, ko'lamini, istiqbollari belgilab bermoqda.

Ikkinchidan, ekologik muammolar globalligini anglash, nafaqat milliy ekologik siyosatning strategik mo'ljallarini ko'rsatish, taktik rejalarni amalga oshirishning konstruktiv-ratsional usul hamda vositalarini tanlash imkoniyatini beradi, balki muayyan ekologik makonning real siyosiy manzarasini tashkil qilgan strukturaviy elementlar (institutsonal tizim) funksiyasini aniqlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlatlarning tabiat muhofazasi sohasida geosiyosati samaradorligi uchun qulay shart-sharoit barpo qilish, uning konseptual nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga, milliy ekologik institutsonal tarkiblarni xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarga moslanuvchan (adaptatsion) muhit yaratishga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos. Aynan Asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo'yicha asosiy prinsiplari mustahkamlanadi, fuqarolarning ekologik burchlari belgilanadi, jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari o'rnatiladi.

Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi chog'ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo'linishi mumkin.

Umumiy konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyamizning 10-bobi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlariga

bag'ishlangan bo'lib, unda davlatning fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan (shu jumladan ekologik) huquqlarini kafolatlashi belgilangan.

Xulosa va takliflar. Ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olishi O'zbekistondagi ekologik muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Yangi asr arafasida mamlakatdagi ekologik muammolar jahonning barcha mintaqalarida o'xshash tendensiyalarga ega bo'la bordi. Tuproq, suv va havoning ifloslanishi, iqlimning isishi, o'simliklar va hayvonot dunyosining kambag'allashuvi, qayta tiklanmas resurslardan foydalanish tendensiyalarining O'zbekiston ekologik muhitida ham namoyon bo'layotgani shundan dalolat beradi. Ayni paytda Orol dengizi halokati mamlakatdagi ekologik muammolarning eng og'riqli nuqtalaridan biriligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>

2. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.

3. Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021.

4. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4680>

5. Omonov Bahodir Nurillaevich, Ochilova Guzal Aralovna, Nomozov Khurshid Shavkatovich, Manzarov Yusuf Khurramovich, Ochilov Baxrom Aralovich

Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583>

<https://www.scopus.com/sourceid/21100216519984-989>

6. Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.

7. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. <https://elibrary.ru/tjvied>

<https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1815/1865>

8. Omonov, Bahodir Nurillaevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA-MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.

9. Nurillaevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ

ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1) (2022).

10. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.

11. Omonov, B. N. "O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.

12. Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.

13. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.

14. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).

15. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.

16. Omonov, B. N. (2024). O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.

17. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.

18. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.

19. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.

20. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.

21. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV

22. IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.

23. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.

24. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.

25. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
26. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
27. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
28. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
29. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
30. Xurshid, Abdullayev. "GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO 'LLARI." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 19.1 (2025): 299-303.